

“Alisher Navoiy lug’ati”ning 2-jildi taqdimoti o’tkazildi

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasida Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bilan hamkorlikda “Alisher Navoiy lug’ati”ning 2-jildi taqdimoti o’tkazildi. Lug‘at taqdimotida mualliflar, yetakchi navoiyshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.





Mazkur 5 jildlik “Alisher Navoiy lug’ati” Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti navoiyshunos olimlari tomonidan tayyorlanmoqda.

Lug’atning 1-jildi A, B, V, G, D harflariga, 2-jildi Ye, Yo, J, Z, I, Y, K, L harflariga tegishli maqolalarni o‘z

ichiga qamrab oladi.